KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILAR JAMOASIDA O‘ZARO MUNOSABATLARNING O‘ZIGA XOSLIGI

Raxmatova Dilobar Ibragimovna
Yunusobod tumani 97-maktabda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Ma’lumki, atrofdagi insonlar bilan munosabatlar bolalik davrida paydo bo‘ladi va faol rivojlanadi. Bunday munosabatlar tajribasi bola shaxsining rivojlanishi uchun poydevor bo‘lib, ko‘p jihatdan uning o‘ziga, boshqalarga va umuman dunyoga bo‘lgan munosabatining xususiyatlarini belgilaydi. Tengdoshlariga intilish, ular bilan muloqotga chanqoqlik maktab o‘quvchisi uchun tengdoshlar guruhini nihoyatda muhim va ahamiyatli qiladi. Tengdoshlar guruhi bilan ijtimoiy munosabatda bo‘lish ko‘nikmalarini egallash va do‘stlar orttirish qobiliyati ushbu yosh bosqichidagi rivojlanishning eng muhim vazifalaridan biridir.

Munosabat - insonlar o‘rtasidagi sub’yektiv kechiriladigan aloqalar va munosabatlar. Bu insonlarning birgalikdagi faoliyati va ularning muloqoti mazmuni bilan belgilanadigan shaxslararo munosabatlar, yo‘nalishlar, kutishlar tizimidir. Ular insonlarning o‘zaro ta’siri doirasida shakllanadi. So‘ngra birgalikdagi mehnat samaradorligiga va muloqot jarayonining kechish xususiyatiga hamda intensivligiga ta’sir ko‘rsatadi [4].

Boshlang‘ich sinflarda bolalar tengdoshlari bilan iloji boricha tezroq aloqa o‘rnatishga harakat qiladilar. Zero, o‘z tengdoshlari orasida do‘st orttirish - bu yoshda rivojlanish uchun muhim vazifa hisoblanadi. Shuning uchun boladan tengdoshlari bilan muloqotga kirishishni o‘rganish talab etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda do‘stlik va o‘zaro mehr tushunchasi shakllanadi. Bolalar o‘rtasida guruhli do‘stlik ham uchraydi. Do‘stlik kabi o‘zaro munosabat tufayli bolalar o‘zlarini anglay boshlaydilar va o‘zlarini jamiyatning bir qismi deb hisoblaydilar.

Kichik yoshdagi o‘quvchilar jamoasida turlicha o‘zaro munosabatlar tarkib topadi: ba’zilarini o‘quvchi tanlaydi, boshqalarini tanlamaydi, qolganlarini esa rad etishi mumkin. Boshqalarga bo‘lgan munosabat barqaror yoki beqaror bo‘lishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zaro munosabatlarini tavsiflaydigan bo‘lsak, xorijiy tadqiqotchilar faqat bolalarning o‘yin yoki predmetli-amaliy o‘zaro ta’siri bilan cheklanadilar. Muloqotni ushbu o‘zaro ta’sirni to‘plash ko‘nikmasi sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1930 yillarda J.Piajening ta’kidlashicha, bolaga teng shaxslarning nuqtai nazarini ajratish - haqiqiy mantiq va axloq boshqa insonlarga nisbatan barcha bolalarga xos bo‘lgan egosentrizm o‘rnini bosishi mumkin. Piaje tengdosh bolalarni ijtimoiylashtirishning muhim omili ekanligini ta’kidlagan [2].

ISSN: 3060-4648 | www.eyib.uz

Ko‘pgina mualliflar o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishda tengdoshlarning asosiy rolini ko‘rsatib, boshqa bolalar bilan muloqotning turli xil ta’sir sharoitlarini ko‘rsatadilar. J. Midning ta’kidlashicha, muloqot ko‘nikmalari bolaning turli rollarni bajarish qobiliyati orqali rivojlanadi. L. Li ta’kidlashicha, tengdoshlar birinchi navbatda shaxslararo tushunishga o‘rgatadi. Shu bilan birga o‘z xatti-harakatlarini boshqaning xatti-harakatlariga moslashtiradi [2, 10-b.].

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchi tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lganda, u boshqalar bilan muloqotda o‘z tajribasiga va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarga ega bo‘ladi: tengdoshlarini tushunish qobiliyati, xushmuomalalik, o‘zaro ta’sir o‘tkazish qobiliyati. O‘zaro munosabatlar tufayli bolalar hissiy munosabatni namoyon etishga zamin yaratadi va o‘zini o‘zi nazorat qilishni rivojlantirishga yordam beradi. Ammo jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit ham muhimdir. Atmosfera kichik maktab o‘quvchisining rivojlanishi uchun qo‘lay sharoit yaratadi: himoyalanganlik hissini beradi, bolaning tengdoshlari bilan aloqada bo‘lish ehtiyojlarini qondiradi, boshqa insonlar uchun ahamiyatli bo‘lishga imkon beradi.

Kichik maktab yoshidagi bola tengdoshlari bilan muloqot qilishda qiyinchilikka duch keladi. Ular tengdoshlari o‘rtasidagi nutqiy va hissiy munosabatlarning farqiga, turli iroda va turli shaxslarga duch kelishadi [1].

Do‘stlarga munosabat va do‘stlikni tushunish kichik maktab yoshi davomida dinamik xususiyatga ega. 5-7 yoshli bolalar uchun do‘stlar, avvalo, bola o‘ynaydigan va boshqalarga qaraganda ko‘proq muloqot qiladigan va tez-tez ko‘rinadigan insonlardir. Do‘st tanlash tashqi belgilar yordamida aniqlanadi. Bu yosh uchun shaxsga emas, balki xatti-harakatlarga e’tibor qaratish xosdir. Bu davrda do‘stlik aloqalari beg‘ubor va qisqa muddatli bo‘lib, ular tezda tugaydi va tezda uziladi.

8 va 11 yoshda bolalar o‘zlariga yordam bergan, ularning iltimoslariga javob bergan va qiziqishlariga sherik bo‘lganlarni do‘st deb bilishadi. O‘zaro mehr-oqibat va do‘stlik paydo bo‘lishi uchun bolalar uchun mehribonlik va e’tiborlilik, mustaqillik, o‘ziga ishonch, halollik kabi fazilatlar muhimdir. Asta-sekin bolada maktab faoliyati davomida sinfdagi shaxsiy munosabatlar tizimi shakllanadi.

Boshlang‘ich maktabda bolalar do‘stlashadi, janjallashadi, yarashadi, xafa bo‘ladi, rashk qiladi, bir-biriga yordam beradi, urishadi, yomonlik qiladi. Munosabatlarning bu barcha turlari turli his-tuyg‘ularni boshdan kechiradi va taqdim etadi. Bu muammolarni keltirib chiqaruvchi sabablar juda xilma-xildir.

Bolalarning psixologik xususiyatlari (tajovuzkorlik, xafa bo‘lish, tortinchoqlik va boshqa xususiyatlar) eng keng tarqalgan. Muammolar negizida axloq va xulq-atvor me’yorlari haqidagi turli tasavvurlar, nevrologik sabablar, ota-onalarning munosabatlari, tarbiya uslublari, o‘qituvchilarning pozisiyalari ta’siri ham yotadi.

Qulay jamoada kichik yoshdagi o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar do‘stona aloqalar, tajriba almashish va yordam ko‘rsatish, shuningdek, o‘zaro hurmat o‘rnatiladi. O‘yin yoki o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida bolalar bir-birlari bilan muloqot qilishdan katta zavq oladilar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari faollik

va g‘ayrat ko‘rsatadilar, sinfdoshlarining tashvishlariga sherik bo‘ladilar va ularning muvaffaqiyatlaridan quvonadilar. Biroq, hatto bunday muhitda ham o‘quvchilar kichik guruhlarga birlashadilar, ular ichida yetakchilar ajralib turadi va bolalar umumiy qiziqishlar, sevimli mashg‘ulotlari yoki o‘zaro yoqtirishlari bo‘yicha birlashadilar.

Kichik maktab yoshidagi o‘zaro munosabatlardagi muammo muqarrar bo‘lib, e’tibor va keyingi yechimlarni talab qiladi. O‘qituvchi yoki ota-onaning vazifasi har bir kishiga o‘z tengdoshlari bilan osonroq muloqot qilish uchun o‘z qadr-qimmatini ochishga va o‘z imkoniyatlarini ko‘rsatishga yordam berishdir.

Sinfdagi noqulay muhit bolalarning, ayniqsa, kamgap va o‘zini himoya qila olmaydiganlarning yopiqligiga sabab bo‘ladi. Jamoada kichik yoshdagi o‘quvchilar ko‘pincha kim qanday kiyinishini, qanday musiqa tinglashini, o‘zini qanday tutishini kuzatadilar va ularning hammasidan kelib chiqib, bolalarni o‘z guruhlariga qabul qiladilar yoki qilmaydilar [5].

Bizning davrimizda ba’zi bolalarda muloqot va ijobiy his-tuyg‘ular yetishmasligi kuzatilmoqda. Bu sinfdagi psixologik muhit bilan bog‘liq. Axir, jamoadagi muhit sog‘lom rivojlanish uchun sharoit yaratishi kerak: bola jamoada o‘zini himoyalangan deb his qilishi va boshqa bolalar uchun ahamiyatli bo‘lishi kerak.

Bolalar orasida turli sharoitlar tufayli guruhga qo‘shilishga qiynaladiganlar uchraydi va ko‘pincha buning uchun mas’uliyat pedagoglar zimmasiga tushadi. O‘qituvchi muammoning mohiyatini tushunishi va bolaga jamoaning bir qismi bo‘lishiga yordam berishi kerak. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun o‘qituvchi shaxsning shakllanishiga va boshqa bolalar bilan muloqot qilish qobiliyatiga hissa qo‘shadigan obro‘ hisoblanadi. Bu esa ular o‘rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. [3]

Kichkintoylar ta’lim olamiga kirib kelar ekanlar, birinchi marta o‘z harakatlari boshqa insonlar tomonidan baholanadigan vaziyatga tushib qoladilar. Atrofdagilar bilan munosabatlarni shakllantirish bolalarda muloqot va jamoada o‘zini tutish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ilk yoshda o‘zlashtirilgan muomala usullari kelajakda ijtimoiy rivojlanish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ushbu strategiyalarni samarali qo‘llay olishlari uchun ularga qo‘llab-quvvatlash va yordam kerak. Bu yordamning qandaydir sabablarini aniqlash uchun sinf jamoasining o‘zaro munosabati va bahosini aniqlash uchun yuqorida keltirilgan metodikalardan foydalanildi. Aksincha, bu jamoada tengdoshlariga nisbatan tushunmovchilik va ishonchsizlik mavjud. Shuning uchun ba’zi bolalar jamoani unchalik qulay deb hisoblamaydilar va o‘quvchilar bilan yomon muloqot qiladilar.

Sinfdagi vaziyatni faqat o‘qituvchi yaxshilashi mumkin. Shuning uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. O‘qitishning guruhli shakllarini qo‘llash: o‘zaro o‘qitish, o‘zaro nazorat.

2. Tengdoshlari orasida o‘quvchining ijobiy obrazini shakllantirishga yordam berish.

3. O‘zlashtirish va mustaqillik orqali ta’lim oluvchilarga o‘z ahamiyatini his qilishga yordam berish.

4. Bolalarga o‘z xatolarini anglashga va ular qanday ijobiy tajriba orttirishlari mumkinligini tushunishga yordam berish.

5. Sinfda umumiy an’analarni shakllantirish, jamoani jipslashtirishga yordam beradigan umummaktab an’anaviy ishlarida ishtirok etish.

6. “Rad etilgan” bolalarni sinf faoliyatiga jalb qilishga harakat qilish, ular uchun o‘z qobiliyatlarini ochishga yordam beradigan topshiriqlarni topish.

7. Birgalikdagi sayrlar, ekskursiyalar, poxodlar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абраменкова, В. В. Социальная психология детства: учебное пособие/ В. В. Абраменкова. - Москва: ПЕР СЭ, 2017. - 431 с.

2. Возрастная и педагогическая психология: учебное пособие для студентов пед. институтов по спец. «Педагогика и методика начального обучения» / М.В. Матюхина, Т.С. Михальчик, Н.Ф. Прокина [и др.], под общей ред.М.В. Гамезо. - М.: Просвещение, 1984. - 256 с.

3. Лазарев М.А., Подвойский В.П., Стукалова О.В. 2016. Педагогическое обеспечение преодоления социальной индифферентности студентов гуманитарных вузов: социально-культурный подход: монография. Под общ. ред. В.П. Подвойского. -Москва: МАО; Даугавпилс: ДУ. 152 с.

4. Общая психология. Словарь / Под ред. А. В. Петровского. 2005

5. Потанина Л.Т., Мельников Т.Н., Москвина А.С. 2016. Развитие ценностно-смысловой сферы личности в новой школе. -Педагогическое образование и наука. № 1: 34-40